

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning **2024 yil 06 iyuldagi № MMO-907-2024** sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati **2026 yilgacha**

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	1 Stomatologiya			
O'quv dastur nomi	Parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining kasalliklari			
O'qish turi	mavzuiy malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	A.M.Xaydarov, K.M. Abduyusupova, M.N.Alyavi, M.A.Aliyeva			
Siklning umumiy soati	144 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., professor A.M.Xaydarov	t.f.n. dotsent M.A.Aliyeva	Assistent K.M. Abduyusupova	Assistent M.N.Alyavi	
Maqsad	Vrach-stomatologlarni terapevtik stomatologiyada og'riqsizlantirish, parodontologik yordamni tashkil qilish, parodont kasalligi etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, qiyosiy tashxisi, davolash va profilaktikasini; og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining (OBShQ) tuzilishi, kasalliklarning tasnifi, OBShQ kasallangan bemorlarni tekshirish usullarini o'ziga xos xususiyatlarini, etiopatogenezi, klinikasi, qiyosiy tashxisi va kompleks davolash tamoyillarini; og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida OITSni o'ziga xos xususiyatlarini va davolash printsiplarini			

	qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini yangilash va kasbiy malakasini takomillashtirish.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mutaxassislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan stomatologlar.
Sikl vazifalari	1. Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida yangi ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; 2. Parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining kasalliklari epidemiologiyasi, etiologiyasi, patogenezi to'g'risidagi bilimlarni zamonaviy darajada rivojlantirish; 3. Stomatologik kasalliklarga yondashib keluvchi patologik holatlarni tashxislash usullarini ishlatish bo'yicha bilimlarni rivojlantirish; 4. Terapevtik stomatologiya amaliyotida ishlatiluvchi tashhislash va davolash tadbirlarini yetarli hajmini mustaqil aniqlashni rivojlantirish; 5. Vrach- stomatologning kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini o'tkazish va tahlil qilishni o'rgatish; 6. Parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining kasalliklari profilaktika uslublarining rejasini tuzishni o'rgatish; 7. Parodont kasalliklarida dispanserizatsiya, rehabilitatsiya va kuzatuv ishlarini amalga oshirishning zamonaviy jihatlarini o'rgatish.
Sikl tarkibi	1. Modul. Terapevtik stomatologiya xizmatini tashkil qilishda zamonaviy qarashlar 2. Modul. Terapevtik stomatologiyasida tekshirish usullari. 3. Modul. Terapevtik stomatologiyada

	og‘riqsizlantirish. 4. Modul. Parodont kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy usullari 5. Modul. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklari 6. Modul. Stomatologiyada fizik usullar bilan tashxis qo‘yish va davolash.
O‘qish bazalari: Asosiy: “Shaxar tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi” Foziltepa ko‘chasi 40 uy	Qo‘shimcha: “Avistom” ma’suliyati cheklangan jamiyat. Mirzo-Ulug‘bek tumani, Qorasuv 2-13-22

